

7-sinf ona tili. 1-BSB. Topshiriqli diktant (25 ball)

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- diktant matnini imlo qoidalariga hamda husnixatga rioya qilgan holda yozadi;
- tinish belgilarini to'g'ri qo'llaydi;
- matndagi murakkab so'zlarning imlosini eslab, to'g'ri yozadi;
- tovush o'zgarishlarini aniqlaydi;
- fe'lining munosabat shakllarini aniqlaydi;
- omonim (shakldosh) so'zlarni aniqlaydi.

Diktant matni namunasi:

To'y, ziyofat, ma'raka yoki shularga o'xshagan yig'in joylarga borib, suhbatlashib o'tirgan odamlar orasiga kirsangiz, quyida zikr qilingan suhbat odobi qoidalariga rioya qiling.

Avvalo, o'tirganlarning nafratiga sabab bo'lmaslik uchun badaningiz va kiyimingiz ozoda bo'lsin, bunday holatda insonlarning sizga hurmati oshadi. Suhbatdoshlar orasiga kirib salom berib, ular bilan ko'rishing. Sizdan yoshi katta bo'lgan odamlardan yuqori o'tirmang. Ikki kishi orasiga ruxsatsiz kirib joylashmang. Sizdan yuqoriroq o'tirgan odam tashqariga chiqib ketishni istasa, o'ringizdan turib yo'l bering. Achchiq qilmang, qovog'ingizni solmang.

O'tirganlarning suhbatiga ishtirok etishni istasangiz, nojo'ya harakatlardan saqlaning. Katta-kichiklarga yoshi va martabasiga ko'ra muomala qiling. To'ng'illab so'zlamang. Chiroyingiz ochiq, so'zlaringiz shirin va muloyim bo'lsin.

Suhbatda esnab, mudrab o'tirish yarashmaydi. Gapirar ekansiz, boshqalarga so'z bermay, o'zingizni bilarmon ko'rsatib, hadeb so'zlay bermang. Bir kishi so'zini tamom qilgandan so'ng suhbatdoshlarning ruxsati bilan muloyimlik bilan so'z boshlang.

I. Matnni baholash mezon (10 ball)

Matnni baholash mezon (10 ball)		1-2 ta	3-4 ta	5-6 ta	7-8 ta
Imlo xatolari	6 ball	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball
Tinish belgilari	2 ball	1 ball			
Husnixat	2 ball				
matn aniq, ravon, tushunarli hamda husnixat qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan bo'lsa –	2 ball				
husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish biroz qiyin bo'lsa –	1 ball				
JAMI:	10 ball				

II. Topshiriqlarni baholash mezon (15 ball)

T/r	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Baholash mezon	
1	Matndan tovush o'zgarishlari riga oid hodisalarni aniqlash.	Tovush o'zgarishi asosida yozilgan so'zlarni aniqlay oladi.	1. Ushbu parchadan fonetik hodisalarni turiga ko'ra (tushish, ortish, almashish) ajratib yozing. <i>Sizdan yuqoriroq o'tirgan odam tashqariga chiqib ketishni istasa, o'rningizdan turib yo'l bering. Achchiq qilmang, qovog'ingizni solmang. Mutakabbirona o'tirishdan saqlaning. Yonboshlab, oyoqlarni uzatib o'tirish odobsizlik sanaladi.</i>	Berilgan parchadagi tovush o'zgarishlarini aniqlab, turiga ko'ra ajrata olgan bo'lsa –	5 ball
				Berilgan parchadagi tovush o'zgarishlarini aniqlab, turiga ko'ra ajratishda xatoliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa –	4 – 3 ball
				Parchadagi tovush o'zgarishlarini aniqlashda bir talay chalkashliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa –	2 – 1 ball
2	Fe'lning munosabat shakllari. Topshiriqlar ustida ishlash	Fe'lning munosabat shakllarini aniqlay oladi.	2. Ushbu parchadan fe'lning munosabat shakllarini aniqlang. <i>To'ng'illab so'zlamang. Chiroyingiz ochiq, so'zlaringiz shirin va muloyim bo'lsin. Suhbatda esnab, mudrab o'tirish yarashmaydi. Gapirar ekansiz, boshqalarga so'z bermay, o'zingizni bilarmon ko'rsatib, hadeb so'zlay bermang. Bir kishi so'zini tamom qilgandan so'ng lozim topsangiz, suhbatdoshlarning ruxsati bilan sekinroq va muloyimlik bilan so'z boshlang.</i>	Fe'lning munosabat shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalarni aniqlay olgan bo'lsa –	5 ball
				Fe'lning munosabat shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalarni (zamon, mayl, shaxs-son) aniqlashda biroz chalkashlikka yo'l qo'ygan bo'lsa –	4 – 3 ball
				Fe'lning munosabat shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalarni aniqlashda talay chalkashlikka yo'l qo'ygan bo'lsa –	2 – 1 ball
3	Shakldosh so'zlar	Omonim (shakldosh) so'zlarni aniqlay oladi.	3. Berilgan gapdagi asosi omonim bo'lgan so'zni aniqlang va ular ishtirokida gap tuzing. <i>To'y, ziyofat, ma'raka yoki shularga o'xshagan yig'in joylarga borib,</i>	Omonim so'zlarni aniqlab, ular ishtirokida gap tuza olgan bo'lsa –	5 ball
				Omonim so'zlarni qisman aniqlagan va ular ishtirokida gap tuza olgan bo'lsa –	4 – 3 ball

		<i>suhbatlashib o'tirgan odamlar orasiga kirsangiz, quyida zikr qilingan suhbat odobi qoidalariga rioya qiling.</i>	Omonim so'zlarni o'xshash birliklardan ajrata olmay, chalkashtirib yuborgan bo'lsa –	2 – 1 ball
Jami:				15 ball

IZOH. Ushbu materiallar o'qituvchiga BSB topshiriqlarining qaysi bob va mavzudan ekanligi, shuningdek, qaysi ko'nikmani rivojlantirishga xizmat qilayotganligi haqida ma'lumot beradi.

O'qituvchi yuqoridagi ma'lumotlar asosida BSB topshiriqlarining turli variantlarini shakllantirishi mumkin.



Test-uz.ru